

Xo'jayev Fayzulla



Xo'jayev Fayzulla

(1896 yil 1-iyul, Buxoro – 1938 yil 15-mart, Moskva)

Davlat va siyosat arbobi, *Jadidchilar* harakatining rahnamolaridan biri. Savdogar oilasida tug'ilgan. Buxoro madrasasida 2 yil tahsil olgach, 1907-12 yillarda Moskvada xususiy maktabda o'qigan. Buxoroga qayt-gach, 1912 yildan yosh buxoroliklar partiyasining, 1913 yildan partiya MKning a'zosi bo'ldi. Otasidan meros qolgan katta boyligni yangi usul maktablari ochishga, yosh buxoroliklar siyosiy faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlashga sarfladi. 1917 yildan boshlab Xo'jayev va *Fitrat* partiyaning so'l qanotiga boshchilik qilib, Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, so'ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. Yosh buxoroliklar amir tomonidan ta'qib qilingach, Xo'jayev va uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur bo'lishdi. Xo'jayev 1920 yil yanvarda Toshkentda tuzilgan inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Turkiston Markaziy byurosi raisi, «Uchqun» gazetasi muharriri (1920 yil aprel-sentabr)dir.

1920 yil 14-sentabrda BXSr hukumati – *Xalq Nozirlar Sho'rosi* tuzilib, Xo'jayev hukumat boshlig'i qilib saylandi. F. Xo'jayev BXSr tashqi ishlar noziri (1920-22), harbiy ishlar noziri (1921-24), ichki ishlar noziri (1922), BXSr Mehnat va mudofaa kengashi raisi (1922-24). Shuningdek, Sharqiy Buxoro Inqilobiy harbiy kengashi raisi (1923-24), SSSR Harbiy-Dengiz ishlari xalq komissarligining O'zbekiston SSR bo'yicha rasmiy vakili (1925 yildan)dir.

F.Xo'jayev «Yosh buxoroliklar» g'oyalari ruhidagi dasturiy hujjat – maromnomani tuzdi va nashr etdi, Xo'jayev rahbarligidagi *“Inqilobchi yoshbuxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi”* tashkiloti nufuzli siyosiy kuchlarni o'zida ifoda etmadi. U O'rta Osiyoni butunlay zabt etish va uni boshleviklar to'liq rahbar bo'lgan yangi davlat tarkibiga qo'shib olish uchun bolsheviklarning kurash vositasiga aylandi. Fayzulla Xo'jayev rahbarlik qilgan yoshbuxoroliklarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan Buxoroda to'ntarish tayyorladilar va amir armiyasini parokandalash bo'yicha faol ishlar olib borishdi hamda mahalliy aholi orasida tashviqot ishlari yurgizishdi. *“Tong”* jurnali va *“Qutulish”* gazetasini nashr eta boshladilar.

Respublika nozirlar kengashining raisi Fayzulla Xo'jayev Buxorodagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan. U yosh buxoroliklar partiyasi rahbarlaridan bo'lgan. Yevropa sivilizatsiyasini o'zlashtirgan edi. Hukumat raisligidan tashqari harbiy nozir, tashqi ishlar noziri bo'lgan. Yosh buxoroliklarning progressiv-demokratik

g'oyalari amal qilgan. Buxoro rahbariyati 1921 yil mart oyida qator chet mamlakatlar hukumatlariga yo'llagan murojaatnomasida «Buxoro xalqi... Yosh Buxoroliklar ta'sirida uyg'ondi», deb ta'kidladi. BKPni F. Xo'jayev «Sun'iy tuzilgan partiya», deb atadi. F.Xo'jayevning qat'iyati bilan Buxoro Chekasi tugatildi, tribunallar, siyosiy bo'limlar tomonidan fuqarolarni jazoga tortish vaqtinchalik to'xtatildi. Islom dini, masjid-madrasalar xizmati, ruhoniylarning faoliyat erkinligi tiklandi, yangi qoziliklar ish boshladi. 1924 yil yozida F.Xo'jayev aholining qashshoqlashganini e'tirof etib, bundan qutulish tadbirlarini izchil amalga oshirish zarurligini uqtirdi. F. Xo'jayev Rossiya tashqi savdo birlashmasini BXSRdan «hamma narsani olishga, ammo hech narsa bermaslikka qodir...» deb aybladi. Natijada 1922 yil bahorida BXSRga bir qator qurilish materiallari, kerosin, neft, temir mollar, qog'oz, daftar, gugurt, kalishlar olib kelindi. 1924 yil may oyida F.Xo'jayev aholining turmush darajasi pasayganini e'tirof etdi. F.Xo'jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati qo'rboshilar bilan yashirin aloqa o'rnatib, muzokara asosida tinchlik yo'li bilan murosa qilishga intildi. Afsuski, F. Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro hukumati tarkibidagi milliy vatanparvar kuchlar (sobiq Yosh buxorolik jadidlar) bilan muxolifatdagi qurolli guruhlar yo'lboshchilari o'rtasida kelishuv amalga oshmadi. Bu totalitar rejim sharoitida amalga oshishi mumkin ham emas edi.

Xo'jayev BXSRning mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishiga, iqtisodiy islohotlar o'tkazish va demokratik erkinliklarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratib, Sovet Rossiyasidan tashqari Eron, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy, Ozarbayjon, XXSR, shuningdek, Germaniya va Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. U talabalarni xorijga jo'natib o'qitishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasi (Revkom) – Muvaqqat ishchi-dehqon hukumati raisi (1924 yil noyabr -1925 yil fevral), O'zSSR XKS raisi (1925-1937), SSSR MIK raislaridan biri. Xo'jayev o'z faoliyati davomida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi va O'zbekiston KPMKga nisbatan muxolifat mavqeida turgan “o'n sakkizlar guruhi” (1925 yil noyab.)ga xayrixoh bo'lgan. U bu guruhning rasmiy a'zosi bo'lmasa ham, aslida ularning g'oyaviy ilhomchisi edi. “Quloq”larni sinf sifatida tugatish siyosatini yoqlamagan. O'zbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakkahokimligiga olib keladi, deb hisoblagan. O'zbekistonda zamonaviy sanoat inshootlari qurilishida tashabbuskor bo'lgan.

2023-11-29 10:11:47